

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TILSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI

*ADCHTI Ingliz filologiyasi, o'qitish
metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish: xitoy
tili yo'nalishi 102-guruh talabasi*

Isomiddinova Xadichaxon Eldorbek qizi

Ilmiy maslahatchi: Zaynobidinova Irodaxon.M

Tel: +998971620508

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining tilshunoslikka doir qarashlari tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonida shakllangan ilmiy maktablar kontekstida tahlil qilinadi. Asarda Alisher Navoiy, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Forobiy kabi allomalarning tilning kelib chiqishi, so'zning ma'no tizimi, fonetik-grammatik tuzilish va nutq madaniyatiga oid fikrlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda ularning lingvistik merosi nafaqat o'z davri uchun, balki zamonaviy tilshunoslikning bir qator nazariy yo'nalishlari uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qilishi ko'rsatiladi. Maqolada o'zbek tilining shakllanishi va rivojida Sharq allomalari yaratgan ilmiy merosning o'rni tizimli tahlil asosida baholanadi.

Kalit so'zlar: *Sharq mutafakkirlari, tilshunoslik tarixi, lingvistik meros, tilning kelib chiqishi, so'z va ma'no tizimi, fonetika va grammatika, nutq madaniyati, Forobiy qarashlari, Zamaxshariy maktabi, til va tafakkur, sharq filologiyasi, o'zbek tili taraqqiyoti*

Аннотация: В статье рассматриваются лингвистические взгляды восточных мыслителей в контексте историко-культурного развития и формирования научных школ. Особое внимание уделено трудам Алишера Навои, Махмуда Кашгари, Захария ар-Замахшари, аль-Фараби и других ученых, чьи исследования охватывают происхождение языка, систему значений, фонетико-грамматическое устройство и культуру речи. Показано, что их лингвистическое наследие представляет собой методологическую основу не только для своего времени, но и для современных теоретических направлений языкознания. В статье системно оценивается роль восточных ученых в развитии и становлении узбекского языка.

Ключевые слова: *Восточные мыслители, история языкознания, лингвистическое наследие, происхождение языка, система слова и значения / лексико-семантическая система, фонетика и грамматика, культура речилнгвистические взгляды аль-Фараби, лингвистическая школа Замахшари, язык и мышление, восточная филология, развитие узбекского языка*

Abstract: This article examines the linguistic perspectives of prominent Eastern scholars within the broader framework of historical and cultural development. It provides an analytical overview of the works of Alisher Navoi, Mahmud Kashgari, Al-Zamakhshari, Al-Farabi, and other classical thinkers who explored the origins of language, semantic structures, phonetic and grammatical systems, and the ethics of speech. The study demonstrates that their linguistic heritage serves as a methodological foundation not only for their epoch but also for several theoretical branches of modern linguistics. The article offers a systematic evaluation of the contribution of Eastern scholars to the formation and development of the Uzbek language.

Keywords: *Eastern scholars, history of linguistics, linguistic heritage, origin of language, word and meaning system / lexical-semantic system phonetics and grammar, speech culture, Al-Farabi's linguistic views, Zamakhshari linguistic school, language and cognition, oriental philology development of the Uzbek language*

Arablar, shuningdek Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqlari qadimgi davrda ham yuqori madaniyatga ega bo'lib, astronomiya, geografiya, tarix va tilshunoslik sohasida ajoyib kashfiyotlar qilib, jahon madaniyatining rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Qadimgi arab tilshunosligi va fani rivojiga arablar bilan bir qatorda, arablar atrofidagi eroniylar, greklar, Evreylar hamda arab halifaligiga qarashli bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlarining farzandlari ham katta hissa qo'shganlar. Bu haqda o'zbek qomusida shunday fikr bildirilgan: "O'rta asrlarda tilshunoslikning rivoji arab va arab tilida ijod etgan filologlar tomonidan davom ettirildi. Arab tilshunosligi rivojida Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Javhariy, Mahmud Qoshg'ariy singari O'rta Osiyolik olimlarning ham hissasi katta bo'ldi. O'zbek tilshunosligi taraqqiyotining oktabrgacha bo'lgan davri haqida shundan boshqa fikrni uchratmaymiz.

Sharq olimlari tildagi ilmiylikni mantiq, falsafa, ilohiyot, adabiyotshunoslik, hatto musiqa bilan bog'liq holda o'rganganlar. Ular tilni nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur shakllanishining asosiy elementi sifatida talqin qilganlar. Bu yondashuv hozirgi kognitiv tilshunoslik tamoyillariga yaqin bo'lib, Sharq ilm-fanining qanchalik chuqur va tizimli bo'lganini ko'rsatadi.

Abu Nasr Farobiy til, tilshunoslik, adabiyot va adabiyotshunoslik, poetika va ritorikaga tegishli ham bir qancha asarlar ijod etgan. U bu mavzuda "Sharh kitob-al-Xitobali Aristutilos (Aristotelning "Ritorika" asariga yozilgan sharh kitobi)", "Kitob al-alfoz va al-xuruf" ("Lafz-so'zlar va harflar haqida kitob"), "Kalom lahu fi ma'no ism al-falsafa" ("Falsafa nomining ma'nosi haqida"), "Kitob fi al-xitoba kabir, ishrun majalladan" ("Ritorika haqida yigirma jildlik katta kitob"), "Kitob fisanoat al-kitoba" ("Yozuv san'ati haqida kitob"), "Kalom lahufi ash-Sne'r va al-qavofiy" ("Sne'r va qofiyalar haqida so'z"), "Kitob fi al-lug'at" ("Lug'atlar haqida kitob"), "Kitob fi ixso iqao" ("Ritmlar tasnifi haqida kitob") kabi asarlar yozgan. Bu asarlarda shoir, tilshunos,

adabiyotshunos Farobiy namoyon bo'ladi. Al-Farobiy tilni mantiq ilmi bilan uzviy bog'liq holda o'rgangan. Uning "Kitob al-huruf", "Al-bayān", "Ihso al-ulūm" asarlarida tilning mohiyati, so'z va ma'no munosabati, nutqning fazilatlarini haqida chuqur fikrlar bildirilgan.

Farobiyni asosiy g'oyalari:

til – insonning fikrlash jarayonining tashqi ko'rinishidir;

so'z ma'nosi jamiyat tajribasi, odatlar va ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllanadi;

grammatik tuzilma esa tilning mantiqiy tartibining ifodasidir;

til o'rganilishi lozim bo'lgan mustaqil ilmiy fan sifatida qoraladi;

Farobiyni tilni mantiq doirasida tahlil qilishi uni Aristotel an'analarining davomchisi sifatida ko'rsatadi. Ya'ni Aristoteldan so'ng ikkinchi muallim (Muallimi soniy) deb yuritganlar.

Zamaxshariyning fan olamidagi ulkan xizmatini hisobga olib, unga Sharq olimlari tomonidan "Ustoz-ul-arab val-ajam" (arab va g'ayri arablar ustoz), "Faxr-i Xorazm", "Jorulloh" kabi unvonlar berilgan. U arab tilida nazm va nasrda yozilgan badiiy asarlardan tashqari tilshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa, tarix kabi fanlarga oid 50dan ortiq asar yozgan. Zamaxshariy arab tilshunosligi tarixida "mu'taziliy" grammatik maktabining eng yirik vakili hisoblanadi. Uning "Al-Muqsad", "Asos al-balog'a", "Al-Kashshof" kabi asarlari nazariy grammatika, lug'at va balog'atga oid fundamental manbalardir. U arab tili fonetikasi va morfologiyasini ilmiy asosda tizimlashtirgan, so'z yasaliishi va grammatik kategoriya tushunchalarini chuqurlashtirgan, balog'at (uslubshunoslik) nazariyasini rivojlantirgan. Zamaxshariy g'oyalari Sharq va G'arb tilshunosligiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. U "Asos-ul baloga" ("Chechanlik poydevori") lug'ati bilan arab lug'atchiligini bir necha pog'ona yuqori ko'tardi. U lug'atida so'zlarning birinchi harfini va undan keyingi harflarini nazarga olgan holda alifbo tartibida berdi. Bu usul sal o'zgargan shaklda hozirgi zamon leksikografiyasida ham qo'llanilmoqda. So'zlarni izohlashda ham Zamaxshariyning yutug'i katta. U so'zlarning asl ma'nolarini berib, shu ma'no-ni tasdiqlovchi misollar keltiriladi. Olim so'zning qaysi iborada qanday ma'noda qo'llanilishiga e'tibor beradi, so'z ko'chma ma'nolarining paydo bo'lish sabablarini ko'rsatib o'tadi.

Ibn Sino o'zining "Shifo kitobi"da inson fikri so'zlarda, ya'ni tilda o'z ifodasini topadi, degan fikrni bayon etadi. U so'zlarni ikki guruhga ajratadi: sodda va murakkab so'zlar. Ibn Sino sodda va murakkab so'zlar yig'indisi gapni tashkil qiladi, deydi. Ibn Sino tilni psixologiya, mantiq va falsafa bilan birga o'rgangan. Uning "Kitob ush-shifo", "Ishoralar va tanbihot" kabi asarlarida so'zning mohiyati, ma'no, tushuncha va tafakkur aloqasi haqida ilmiy mulohazalar keltiriladi. Uning asosiy g'oyalari:

Tushuncha – fikrning ichki shakli, so'z – uning tashqi ifodasidir.

Til inson ruhiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nutq fiziologiyasi haqida fikrlar bildiradi.

To'g'ri nutq madaniyati – inson kamolotining muhim ko'rsatkichi.

Ibn Sino til va tafakkur birligini isbotlashga urinib, hozirgi psixolingvistika tamoyillariga yaqin qarashlarni ilgari surgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musayev.A. "Umumiy tilshunoslik"
2. Usmonov.S. "Umumiy tilshunoslik"
3. Sodiqov.A "Tilshunoslik"
4. Nurmonov. A. "Tanlangan asarlar"

